



## XORIJIY TIL O'RGATISHDA TILNI EMAS O'SHA TILDA FIKRLASHNI O'RGATISH ZARURATI

**Shohrasul Namozov**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

**Kalit so'zlar:** *til va savodxonlik, o'rganayotgan tilida fikrlash, o'quv dasturi, til aspektlari, yaratuvchanlik va ijodkorlik, ikkinchi til.*

### **Kirish**

Hozirda ko'plab ota-onalar maktablarda ingliz tili o'rganish deganda asosan so'zlarni imloviy jihatdan to'g'ri yozilishini o'rganish, ularning tarjimasini yod olish va grammatik qoidalar majmuasini o'zlashtirib olishni tushunishadi. Bu holat ko'pchilik insonlarning til va savodxonlikni bir tushuncha ya'ni sinonim deb bilganliklaridan bo'lsa ajab emas. Ba'zi kam sonli ota-onalarning e'tirof etganidek bolalarga xorijiy til o'rgatish deganda faqat yuqoridagi bilimlarni emas, shuningdek o'rganilayotgan tilning adabiyoti,ertaklari va hikoyalarini ham o'rgatish kerak. Zero, shunda bola o'rganayotgan tilida fikrlashga odatlanib boradi. Va bu yerdagi yana boshqa eng katta muammoli holatlardan biri- bu dars jarayonining ta'lim tizimi tominidan belgilab berilgan dasturlarga amal qilgan holatda o'tilishidir. Garchi o'qituvchilar dars dasturiga qisman (15foiz) o'zgartirish kiritish imkoniga ega bo'lsalarda, ba'zi holatlarda bu tilni samarador o'rgatish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin.

### **MUHOKAMA**

Ko'pgina boshqa o'qituvchilarga o'xshab ingliz adabiyoti,ingliz san'ati kabi sohalarni muvaffaqiyatli tamomlagan o'qituvchilik sohasida ish boshlayotgan kadrlar o'z bilimlari, o'z yondashuvlaridan kelib chiqqan holda dars o'tishni rejalashtirishlari buning uchun qo'shimcha ma'lumotlar tayyorlashlari,bu sohadagi bilimlarini o'quvchilar bilan bo'lishmoqchi bo'lishlari mumkin.

Ammo o'qituvchi sifatida dars jarayoniga kelganda ular o'quv dasturida belgilangan til aspektlarini mavzu sifatida o'tishlariga to'g'ri keladi va bu o'z o'rnida yuqorida aytib o'tilgan tayyorgarliklarni amalda qo'llash uchun yetarlicha vaqt qoldirmasligi mumkin.Chunki maktab dasturlari talabiga ko'ra odatda o'qituvchilardan asosiy e'tiborni fan mavzusiga qaratish, o'qish va yozish bo'limlarini mukammal biladigan o'quvchilar yetishtirib chiqarish so'raladi. Va ba'zida o'quvchilarning choraklik yoki boshqa imtihonlardan yaxshi baho olmayotgani, buning uchun esa ularga tilning grammatik qoidalari yetarlicha o'rgatilmayotgani asos qilib ko'rsatilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.Va mana shunday holatlarda biz savodxonlikning biz o'ylagan o'qitish dasturida egallaydigan bilimlardan farq qilishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



Va hozirda bilamizki, ingliz tili o'qitish ko'p yillardan buyon bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan va unga savodxonlikni rivojlantirish masalasiga yechim sifatida qaralmoqda. O'quv dasturlarimizdagi darslarning ba'zisi o'qish, ba'zisi yozish va boshqalari to'laligicha gapirish hamda eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsada, til o'rgatishda asosiy e'tibor grammatika qoidalariga emas o'qituvchining yaratuvchanlik va ijodkorlik faoliyatiga qaratilishi lozimligini ko'rishimiz mumkin. Va bunda, albatta, yodda tutish kerakki, xorijiy til grammatikasini umuman o'rganmaslik emas, faqat ehtiyoj darajasida o'rganib asosiy e'tiborni o'quvchining o'sha tilda fikrlashga o'rgatadigan bilimlar bilan shug'ullantirish kerak bo'ladi. Zero, xorijiy tilni ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun asosiy tili ingliz tili bo'lgan davlatdagi o'rganuvchilardagi imkoniyatlar bo'lmaydi va bu o'sha tilning grammatikasini ham ma'lum miqdorda o'rganishni talab etadi. Ammo hozirda bir guruh tarafdorlar ham borki, ular bolalarga ona tilisining grammatikasini o'qitish shart emas degan fikrga ishonishadi, chunki tilning bu aspekti insonning hayoti davomida o'qish va gapirish aspektlari orqali tabiiy ravishda o'zlashtirib boriladi degan fikrdadirlar. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'qish aspekti bilan ko'proq shug'ullanish til sohasidagi bilimlarni yanada oshiradi va bu o'quvchilarning yozish mahoratiga ham o'z tasirini ko'rsatadi. Ammo bu ta'sir judayam bilinmas bo'lishi mumkin va tug'ilganimizdan bizga grammatika singib borganidek tabiiy ravishda erishilishi mumkin bo'lgan til qismidir.

Til har bir jamiyatning muhim qismidir u har bir shaxsni ifodalab beradi, undan samarali foydalanish esa bizning dunyomizdagi zarur bo'lgan tushunchadir. Til o'qituvchisi sifatidagi vazifamiz esa o'quvchilarga tildan eng samarali holatda foydalanish va undan qanday foydalanishni o'rgatishdir. Ayni damda til va o'ylash qobiliyati o'rtasidagi bog'liqlikni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Yani biz ingliz tili fani o'qituvchilari o'quvchilarga faqatgina tilni emas o'sha tilda o'ylashni ham o'rgatishimiz zarurdir. Va bu borada ham fikrlarning har xilligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, savodxonlik faqatgina o'qish va yozish qobiliyatlaridagina iborat emas va Ingliz tilini o'rgatish grammatikani yoki o'qish qobiliyatlarinigina tushuntirib berish bilangina amalga oshib qolmaydi. Ingliz tili o'qituvchilaridan esa kundalik ish jarayonida tilning ko'plab aspektlari bilan ishlashlari talab etilishi mumkin. O'qituvchilik tajribamiz oshib borar ekan Ingliz tili o'qitishning ko'plab aspektlarining qiziqarli jihatlarini o'zimiz uchun kashf etib borishimiz mumkin bo'ladi. Ish faoliyatimizdagi cheklolvar yani o'quv dasturlariga amal qilgan holda dars o'tishimiz kerak bo'lsada, haqiqiy o'qituvchilik xislatiga ega mutaxassis o'quv dasturlari bilan birgalikda o'zida mavjud bo'lgan barcha resurslarni ham qo'llay oladigan o'qituvchidir.

Jane Austenning romanini o'qiymizmi yoki Spike Milliganning she'rini yod olamizmi muallifning so'z tanloviga e'tibor berayotgan bo'lamiz, shikoyat xati yozamizmi yoki ariza shakli to'ldiramizmi mos keladigan so'zni tanlashimiz kerak bo'ladi, maruza qilamizmi yoki telefonda gaplashamizmi o'zimizga kerakli bo'lgan



so'zlarni qo'llaymiz. Har bir bola yoshlikdan o'ziga kerakli bo'lgan narsaga erishish uchun shirinlikmi, o'yichoqmi, televizor ko'rishmi har qanday vaziyatda ham tildan foydalanadi. Xuddi shuningdek Ingliz tili o'qituvchilari o'z o'quvchilarini tilning bu aspektini ongli ravishda va samarali holatda o'rganishga ruhlantirishlari shundan keyin esa ularning tildagi potensialini tushunishlari va uni qanday o'zlashtirishlarini o'rgatishlari kerak bo'ladi.

Ayni damda shuni ham yodda tutish kerakki, bazi o'quvchilar o'qish, yozish va ravon gapirishga qodir bo'lmagan o'quvchilar maktabda ham maktabdan tashqarida ham albatta muammolarga duch kelishi ko'p kuzatiladi. Ingliz tili o'qituvchisi sifatida biz bunday o'quvchilarning tildagi kamchiliklarini ham aniqlab ularni kuchli shaxs sifatida shakllantirishga ham mas'ul bo'lamiz. Tilsiz esa jamiyatda mavjud bo'lish imkonsizdir. Chunki ko'pchilik ishlar har qanday darajada bo'lishidan qati nazar tilni tushunish va undan foydalana olishni talab etadi. Ammo til grammatikasiga keraksiz buyum sifatida qaralmaslik kerak bo'ladi. Darhaqiqat, u tilning tabiiy va muhim elementidir. Ingliz tili ona tili bo'lgan davlatlarda bolalar asosan besh yoshgacha grammatika qoidalarini o'zlashtirib boradi va ulardan maqsadli hamda tabiiy ravishda foydalana oladi. Stephen King o'zining "Writing haqida" nomli kitobida grammatika tabiiy ravishda singib borishini aytib o'tadi va quyidagicha xulosaga keladi:

"Aloqa qilishizga xizmat qiladigan vositalar til qoidalari orqali tartibga solib turilishi kerak, agar bu qoidalarga amal qilinmasa anglashilmovchiliklar va noto'g'ri natijalarga sabab bo'lishi mumkin. Yomon grammatika esa noto'g'ri gaplarning shakllanishiga olib keladi. Grammatikaning asosiy qismi gapirish va o'qish aspektlari orqali singib boradi, ammo yozma va og'zaki grammatika o'rtasida keskin farqlar mavjud va bu ba'zi o'quvchilarni yoshlikdan o'rgatib borilmasa chalkashliklarga sabab bo'lishi mumkin".

Maktab dasturlarida o'qitiladigan grammatika Standart Ingliz tili grammatikasi bo'lib undagi qoidalarning barchasi ham og'zaki nutqda qo'llanilavermaydi. Til undagi grammatika, lug'at boyligi, orfografiya va punktuatsiyalar orqali ifoda etiladi ammo talaffuz bo'limi bilan emas. Og'zaki nutq esa boshqacha tushunchadir. Og'zaki va yozma nutq orasidagi farq David Crystalning "Rediscover Grammar" kitobida ham aytib o'tilgan. Ba'zi ingliz tili o'qituvchilari o'z darslarida ixtiyoriy ravishda til aspektlarini qo'llab borishadi. Masalan Dickens asarlaridagi qahramonlarni muhokama qilish murakkab gaplardan foydalanishni talab etishi mumkin. Ammo biz bunday muhokamlarda so'zlar, gaplar, grammatik tushunchalar kabi til birliklarini o'rganib boramiz, o'quvchilarni bu vositalardan foydalana olish, ularni erkin o'ynata bilish, ular ham murakkab gaplar orqali yozish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkinligiga ishonch hosil qildirib borishimiz mumkin bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchilarga har xil sarlavhali jurnallar taqdim etib undagi grammatik yoki tilga oid xato va kamchiliklarni aniqlash bunday kamchiliklarning o'rniga o'zlarining muqobil variantlarini taqdim etishlarini so'rash va bu orqali ularga til darsning zavqli tomonlarini ochib berishga imkoniyat hosil bo'ladi. Albatta o'quv dasturlari dars jarayonlari faqatgina zerikarli



tartibda bo'lishi kerak degan qat'iy talabni qo'ymaydi, aksincha qo'shimcha materiallar orqali buning aksi bo'lgan natijani o'qituvchilardan kutib qoladi. Biz ingliz tili o'qituvchilari esa o'z kreativ qobiliyatlarimizni ishga solib va berilgan tavsiyalar orqali o'quvchilarga motivatsiya berishimiz hamda ularning albatta muvaffaqiyatga erishishlariga ishontirishimiz kerak bo'ladi. Bu dasturlar o'qitishni standartlashtirish va barcha maktablardagi va barcha sinfdagi o'quvchilarning teng ta'limolishlari uchun ishlab chiqilgan.

#### XULOSA

Yuqorida aytib o'tilgan kabi o'quv dasturlari o'qitilishi kerak bo'lgan asosiy mavzularni aniqlashtirish bilan birgalikda ularni samarali o'qitish uchun ko'rsatmalar ham berib o'tishi maqsadga muvofiqdir. Bunda tildagi qiyinchilik va murakkabliklar osonlashtirilgan bo'lsada, biz o'qituvchilarning ham faollagimizni talab etadi. Chunki Ingliz tili boshqa tillarga nisbatan ancha boy va o'zgarishlarga ko'p moyil bo'lib til o'rganuvchilarga yaxshi va yomon bo'lgan tasirlarga ega bo'lishi mumkin. Bryson aytib o'tganidek u "yolg'ondakam murakkablikka o'xshaydi aslida hech narsa ko'ringanidek murakkab emas". Bu til o'rgatishning naqadar jozibali ekanini ko'rsatadi. O'quvchilarga savodxonliklarini qanday qilib rivojlantirishlarini ko'rsatish orqali ularga ishonch berish bilim va ko'nikmalarini har xil shakllarda qo'llay olishlariga qodir qilish, ravon so'zlovchi, mohir o'quvchi va kuchli yozish ko'nikmasiga erishishlariga asos bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maliha Siddiqi September 2022 Creativity in Language Teaching Pakistan Journal of Applied Social Sciences 13(2):1-16 September 2022 13(2):1-16
2. Lucia-Larissa Morar September 2020 The Importance of Creativity in Foreign Language Acquisition Land Forces Academy Review 25(3):217-222 September 2020 25(3):217-222 DOI:[10.2478/raft-2020-0026](https://doi.org/10.2478/raft-2020-0026) License [CC BY-NC-ND 4.0](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)
3. Jones, R. H. (2020) Creativity in language learning and teaching: translingual practices and transcultural identities ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9426-727X> Applied Linguistics Review, 11 (4). pp. 535-550. ISSN 1868-6311